

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O‘G‘LI**

**EKOLOGIYA SOHASIDA MAXSUS VAKOLATLI DAVLAT  
BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA  
SOLISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Axrorov Adxamjon Asrorkul o‘g‘li**

Ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solish.....3

**Akhrorov Adkhamjon Asrorkul ugli**

Legal Regulation of the Activities of Specially Authorized Public Administration Bodies in the Sphere of Ecology .....20

**Ахроров Адхамжон Асроркул угли**

Правовое регулирование деятельности специально уполномоченных органов государственного управления в сфере экологии .....37

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works .....42

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02  
RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**

**EKOLOGIYA SOHASIDA MAXSUS VAKOLATLI DAVLAT  
BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA  
SOLISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Yu526 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yuldashev Djaxongir Xayitovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 15-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1198-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 3-iyun kuni tarqatildi.  
(2024-yil 3-iyundagi 8-son reyestr bayonnomasi).

**R.R. Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**F.B. Maxmudov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**I.R. Bekov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish xalqaro tashkilotlar va barcha davlatlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayib ketishi, cho‘llanishning tobora kengayishi, ozon qatlamining yemirilishi, global isish, chuchuk suv resurslarining tanqisligi natijasida ko‘plab ekologik muammolar vujudga kelmoqda. Ekologiya sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etishning muhim omillaridan biri sifatida sohani tartibga soluvchi davlat boshqaruv organlari faoliyatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohadagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tizimini optimallashtirish, davlat ekologik nazoratining ta’sirchanligini oshirish zarurati bu borada chuqur ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishini taqozo etmoqda. Sohadagi davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlariga yuklatilgan funksiyalar takrorlanishining oldini olish, qonunchilik hujjatlaridagi ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, mazkur sohadagi davlat boshqaruvida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish kabi masalalarning nazariy va amaliy yechimini topish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishga erishishda davlat boshqaruv organlari faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda ayniqsa jiddiy sezilmoqda. Mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘pdir. Favqulodda issiq kunlar soni ikki marta ortib, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo‘qoldi”<sup>1</sup>. Mamlakatimizda fuqarolarning qulay ekologik muhitga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash bo‘yicha muhim huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirilayotganiga qaramasdan, ekologiya sohasidagi vakolatli davlat boshqaruv organlari tizimining tarqoqligi va bir-birining funksiyalarini takrorlovchi davlat organlarining mavjudligi; mazkur sohada davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarning deklarativ xususiyatga egaligi va ularni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi; davlat ekologik nazorati turli organlar tomonidan amalga oshirilishi hamda ular faoliyatiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatish imkoniyatining mavjudligi; davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari vakolatlarining cheklangani; davlat boshqaruv organlari tomonidan ekologiya sohasida ruxsat berish

---

<sup>1</sup> “Xalq so‘zi” gazetasi № 257, 02.12.2023.

tizimi va shartlaridagi bo'shliqlarning mavjudligi; ushbu sohadagi davlat boshqaruvida davlat-xususiy sheriklik tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilmagani va jamoatchilik nazoratining sustligi kabi muammolar mazkur sohada tadqiqot olib borish zaruratini vujudga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'RQ-754-XII-son (1992), "Ekologik nazorat to'g'risida"gi O'RQ-363-son (2013), "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-837-XII-son (1993), "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi O'RQ-353-I-son (1996), "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-409-son (2016) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-son "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonlari hamda 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda sohani tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari huquqshunos olimlar tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan bo'lib, mavjud tahlillar asosan umumiy yondashuvga asoslangan.

O'zbekistonlik huquqshunos olimlardan Axmedshayeva M.A., Artikov D.R., Bahronov Sh.X., Bozorov U.B., Fayziyev Sh.X., Hayitov Sh.R., Ikramov Sh.T., Odilqoriyev X.T., Islomov Z.M., Ismoilov N.M., Jurayev Y.O., Jurayev Sh.Y., Maxkamov D.N., Najimov M.K., Narzullayev O.X., Nematov J.N., Qosimov B.E., Rajabov N.Sh., Safarov Dj.I., Saydullayev Sh.A., Sultanova S.A., Toshboyeva R.S., Tursunov A.S., Usmonov M.B., Uzakova G.Sh., Xakimov G.T., Xojjiyev E.T., Xujanazarov A.A., Xvan L.B., Xolmo'minov J.T.<sup>2</sup> tomonidan davlat boshqaruvi, davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatining ayrim jihatlarini tadqiq etilgan.

---

<sup>2</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan Devid L., Emerson G., Fayol A., Ford G., Killen K., Kunts G., Ma Sin, O'Donnel S., Otto M., Robert E., Teylor F., Jirou T., Zahar A. tomonidan ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatining ba'zi muammolari o'rganilgan.

MDH davlatlaridan Atamanchuk G.V., Balashenko S.A., Bogolyubov S.A., Boltanova Y.S., Brinchuk M.M., Vinokurov V.A., Vinokurov A.Y., Vlasov V.A., Golichenkov A.K., Dubovik O.L., Yerofeyev B.V., Kurashvili B.Y., Lazarev B.M., Pirogova Y.Y., Chirkin V.Y. kabi olimlar tomonidan mazkur tadqiqot mavzusining ayrim jihatlarini yuzasidan izlanish olib borilgan.

Shunga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasida ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solish masalasi ma'muriy huquq nuqtayi nazaridan alohida monografik tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi fundamental loyihasi (2017–2021-y.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;

ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi prinsiplari, metodlari, shakllari va ularning davlat boshqaruvi mexanizmida tutgan o'rnini tadqiq etish;

ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

ekologiya sohasida ruxsat berish tartib-taomillarini takomillashtirish yuzasidan takliflar shakllantirish;

davlat ekologik nazoratini amalga oshirishdagi mavjud huquqiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini tadqiq etish orqali mamlakatimizda ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

mazkur sohadagi davlat boshqaruvida davlat-xususiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini kengaytirish istiqbollari tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekistonda ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari

tomonidan boshqaruv faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarning ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo'llash amaliyoti, ilmiy-nazariy qarashlar hamda huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

davlat ekologik nazoratining turli organlar tomonidan amalga oshirilishi natijasida manfaatlar to'qnashuvining vujudga kelishi, ushbu organlarda nazoratni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy mexanizmlar va kadrlar resurslari mavjud emasligi nazoratning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani sababli uni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tizimini optimallashtirish lozimligi asoslab berilgan;

tadbirkorlik subyektlari faoliyati erkinligini ta'minlash hamda ularni ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining asossiz aralashuvlaridan himoya qilish, shuningdek, ular tomonidan o'z mansab vakolatlari suiiste'mol qilinishining oldini olish zaruriyati vujudga kelayotgani sababli ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining diskretion vakolatlarini aniqlashtirish lozimligi asoslantirilgan;

atrof-muhitni muhofaza qilish, unga yetkazilayotgan zararlarning oldini olish maqsadida noqonuniy kesilgan va yo'q qilingan daraxtlar hamda butalarning o'rniga qimmatbaholigi jihatidan ulardan kam bo'lmagan daraxt va buta ko'chatini aynan ular kesilgan yoki yo'q qilingan joyga daraxtlar va butalarni kesgan yoki yo'q qilgan shaxslar tomonidan ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi qaroriga ko'ra ekilishi lozimligi asoslab berilgan;

suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida suv xo'jaligi obyektlarini boshqarish sohasida davlat sherigi va xususiy sherikning o'zaro foydali hamkorligi hamda davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan davlat-xususiy sheriklikni keng joriy etish lozimligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining norma ijodkorligi samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan;

ekologiya sohasida ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish tartib-taomillarini takomillashtirish hamda unga qo'yilgan talablarni qat'iylashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan;

davlat ekologik nazoratini amalga oshirish vakolatining turli organlar o'rtasida taqsimlanishi nazoratning ta'sirchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi sababli nazorat qiluvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tizimini optimallashtirish lozimligi hamda uning boshqa organlardan moliyaviy va tashkiliy jihatdan mustaqil



bo'lishi kerakligi asoslantirilgan hamda qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi tomonidan davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida nazorat qilish samaradorligini ta'minlash bo'yicha qonunchilik hujjatlariga takliflar ilgari surilgan;

davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli mansabdor shaxslari qarorlarining nazorat ostidagi subyektlar harakatlariga mutanosib bo'lishini ta'minlash muhim ekanligi asoslab berilgan;

ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi tayyorlangan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi to'g'risida nizom konsepsiyasi tayyorlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya natijalari milliy qonunchilik hujjatlari, rivojlangan davlatlar tajribasi va huquqni qo'llash amaliyoti tadqiq qilinib, ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarida faoliyat yurituvchi xodimlar va keng jamoatchilik orasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazilib, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar orqali rasmiylashtirildi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilindi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlandi va amaliyotga tatbiq qilindi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, norma ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda Ma'muriy huquq va Ekologiya huquqi kabi fanlarni ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, birinchidan, ushbu sohadagi davlat boshqaruv organlari faoliyatini optimallashtirish asosida samarali davlat boshqaruvini ta'minlashga qaratilgan bir qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan, ikkinchidan, uning natijalaridan sohaga oid qonunchilik hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solish mavzusidagi tadqiqot bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tizimini optimallashtirishga oid taklifdan O'zbekiston

Respublikasining 2021-yil 30-noyabrdagi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ–733-son Qonuni bilan “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasi ikkinchi qismiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi tomonidan 2024-yil 16-yanvardagi 04/8-10-08-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi suv resurslaridan oqilona foydalanish, yer osti va yer usti suvlarining zaxiralarini ko‘paytirish hamda ulardan maqsadli foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi ijro hokimiyati organlarining mas’uliyatini oshirishga xizmat qilgan;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining asossiz aralashuvlaridan himoya qilish hamda ular tomonidan mansab vakolatlari suiiste‘mol qilinishining oldini olish maqsadida ularning diskretsion vakolatlari chegarasini aniq belgilashga doir taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-904-son Qonuni bilan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun 10-moddasi uchinchi qismi, 48- va 50-moddalarining ikkinchi qismlari, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonunning 22-moddasi birinchi qismining uchinchi xatboshisiga o‘zgartirish kiritishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi tomonidan 2024-yil 12-martdagi 04/12-10/14-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining vakolatlarini aniqlashtirishga, aholi hayoti va sog‘lig‘iga xavf yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qilgan;

atrof-muhitni muhofaza qilish, unga yetkazilayotgan zararlarning oldini olish maqsadida noqonuniy kesilgan va yo‘q qilingan daraxtlar hamda butalarning o‘rniga qimmatbaholigi jihatidan ulardan kam bo‘lmagan daraxt va buta ko‘chatini ular kesilgan yoki yo‘q qilingan joyga maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi qarori bilan ekilishi lozimligi aks etgan taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-916-sonli Qonuni bilan “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 49<sup>1</sup>-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasining 2024-yil 12-martdagi 04/12-10/14-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi daraxtlar va butalarning noqonuniy kesilishining oldini olishga xizmat qilgan;

suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarish sohasida davlat-xususiy sheriklikni joriy etishga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-dekabrdagi “Qashqadaryo viloyati tajribasi asosida suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 703-son qarori 1-bandi birinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta‘minlash boshqarmasi tomonidan 2023-yil 20-fevraldagi 12-15-20-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga

joriy etilishi suv resurslarini samarali boshqarish, ularning hisobi va hisobotini zamonaviy texnologiyalar asosida yuritishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, xususan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 11 ta maqola (7 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Ilmiy tadqiqot ishi kirish, uch bob, 8 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan iborat bo'lib, uning hajmi 136 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishning nazariy-huquqiy tavsifi**" deb nomlanib, unda ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tushunchasi, maqsadi, tizimi va ularning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, O'zbekistonda ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining rivojlanish bosqichlari va ular faoliyatining prinsiplari, metodlari hamda shakllari kabi masalalar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi tushunchasini tahlil qilishda ko'plab olimlarning (Z. Islomov, M. Axmedshayeva, X. Odilqoriyev, E. Xojiyev, A. Isaboyev, J. Xolmo'minov, Y. Jurayev, Sh. Fayziyev, N. Muxidinov, D. Maxkamov, A. Golichenkov, S. Balashenko, V. Vlasov, Y. Pirogova, A. Kramnik, Y. Kozlov, G. Atamanchuk) fikrlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan. Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifini ishlab chiqqan:

"Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi – vakolatli davlat organlarining fuqarolar uchun qulay ekologik muhitni yaratish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan, ekologik qonunchilik bilan tartibga solingan tizimli ravishda amalga oshiriladigan, normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlashga oid ijrochilik va farmoyish berish faoliyatidir".

Dissertant tomonidan ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlarini umumiy, maxsus va funksional organlarga ajratish mumkinligi tahlil qilingan va ushbu organlarni toifalarga ajratishda ularning kompetensiyasi muhim mezon ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining umumiy va funksional vakolatli organlardan farqli jihatlari huquqshunos olimlar (D. Maxkamov, M. Brinchuk, S. Balashenko) fikrlari asosida tahlil qilinib, uning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Xususan, sohadagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining faoliyati atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish va ularni amalga oshirish; qoida va standartlarni ishlab chiqish; litsenziyalash, sertifikatlash, davlat ekologik nazorati va ekologik ekspertizalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Yuqoridagi vakolatlar umumiy vakolatli organlarda mavjud emasligi asoslab berilgan hamda ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan:

“Ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, sohada majburiy talablarni belgilash, ruxsat berish, davlat ekologik nazoratini amalga oshirish, funksional organlar faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari tizimidir”.

Tadqiqotchi tomonidan ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish natijasida sohani boshqarish maqsadi hamda qonunchilik hujjatlarining takomillashtirish tendensiyalaridan kelib chiqib maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda uch qismga ajratgan holda davrlashtirish taklif qilingan. Birinchi bosqich 1925-yilda O'zbekiston SSR tashkil etilishidan boshlab 1991-yilga qadar bo'lgan davrni qamrab olib, mazkur davrda sohadagi davlat boshqaruvi bir tomonlama bo'lib, mamlakatdagi mavjud tabiiy resurslardan cheklanmagan tarzda foydalanish va ko'proq foyda ko'rishga qaratilgan. Ikkinchi bosqich O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan boshlab 2017-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, ushbu bosqich sohadagi davlat boshqaruv organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish jarayonlari bilan xarakterlanadi. Uchinchi bosqich 2017-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab olib, ushbu davr sohadagi davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini kuchaytirish, mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash va fuqarolar uchun qulay ekologik muhitni yaratishga qaratilgani bilan xarakterlanishi qonunchilik hujjatlari orqali asoslab berilgan.

Ushbu bobda dissertant tomonidan ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshirish prinsiplari, metodlari va shakllari tahlil qilinib, sohadagi davlat boshqaruvini amalga oshirishda ma'muriy-huquqiy metodlardan keng foydalanilishi qonunchilik hujjatlari orqali asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'zbekistonda ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishning ma'muriy-huquqiy mexanizmlari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli boshqaruv organlarining norma ijodkorligi faoliyati, mazkur

organlar tomonidan davlat ekologik nazoratni amalga oshirish hamda sohada ruxsat berish tizimidagi mavjud muammoli jihatlar amaliy misollar yordamida tahlil qilinib, milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan.

Tadqiqotchi tomonidan ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish hamda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini baholash maqsadida ularning atrof-muhitga ta'sirini baholash indikatorlarini ishlab chiqish lozimligi asoslantirib berildi.

Tadqiqotchi tomonidan ruxsat berish tizimi davlat boshqaruv organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqini berish hamda ular o'z faoliyatini ruxsat etish talablari asosida amalga oshirishi yuzasidan nazoratni amalga oshirishga doir vositalar majmui ekanligi tahlil qilingan.

Mamlakatimizda mavjud ekologik muammolar vakolatli davlat boshqaruv organlari tomonidan ruxsat berish tizimi va shartlaridagi bo'shliqlar va sohani tartibga solishda tanlangan pozitsiyaning maqsadga nomuvofiqligi bilan bog'liq ekanligi isbotlangan hamda mavjud muammolarni bartaraf etishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertant tomonidan davlat ekologik nazorati vakolatli davlat organlari tomonidan muntazam amalga oshiriladigan atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek, mazkur sohada davlat xizmatlarini ko'rsatishda qonuniylikni ta'minlash vositasi ekanligi ta'kidlangan hamda uning quyidagi belgilari mavjud ekanligi isbotlangan: ekologiya sohasida amalga oshirilishi; vakolat berilgan davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilishi; nazorat yakunida nazorat obyektiga nisbatan bevosita yoki bilvosita ta'sir chorasini qo'llash imkoniyati mavjudligi; nazoratning muntazam amalga oshirilishi.

Tadqiqotchi davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibini belgilovchi yagona normativ-huquqiy hujjatning mavjud emasligi, nazorat qilish funksiyasi turli organlar tomonidan amalga oshirilishi hamda davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sirining mavjudligi kabi muammolar maxsus vakolatli organlar tomonidan nazorat funksiyasining samarali amalga oshirilishiga imkon bermayotganini asoslab bergan.

Tadqiqotchi tomonidan Sh. Fayziyev, L. Gamidullayeva va A. Golichenkovlarning ilmiy ishlari tahlili asosida davlat ekologik nazoratining samaradorligi uni amalga oshiruvchi subyektning mustaqilligi va boshqa organlarning ushbu subyektlar faoliyatiga ta'siri mavjud emasligiga bog'liq ekanligi asoslantirilgan hamda davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi organning faoliyati boshqa organlar aralashuvidan, xususan, boshqa tuzilmalardan moliyaviy va tashkiliy jihatdan to'liq mustaqil bo'lishi kerakligi amaliy misollar yordamida asoslab berilgan.

Amalga oshirilgan tahlillar natijasida tadqiqotchi tomonidan boshqa davlat organlaridan mustaqil bo'lgan va to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadigan hamda o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda Prezidentiga hisobdor bo'lgan Davlat ekologik nazorat inspeksiyasini tashkil etish taklif etilgan.

Davlat ekologik ekspertizasi xulosalari tahlili asosida manfaatdor shaxslarga taqdim etilgan ekspertiza xulosalarining aksariyati xulosada keltirilgan muayyan talablarni

bajarish sharti bilan ekspertiza markazi tomonidan ijobiy xulosa berish amaliyoti noto‘g‘ri ekanligi va bu amaliyotni bekor qilish zaruriyati asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish: milliy va xorijiy tajriba”** deb nomlanib, ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solish borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribasi, mamlakatimizda ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan.

Mazkur bob doirasida bir qator xorijiy mamlakatlarda ekologiya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ularni shartli ravishda Yevropa va MDH modeliga ajratish mumkinligi ilgari surilgan. Yevropa modelining o‘ziga xos xususiyati mazkur sohadagi davlat boshqaruvi yagona tashkiliy tuzilma tomonidan amalga oshirilishida namoyon bo‘lib, asosan G‘arbiy Yevropa va AQShda qaror topgan. Yevropa modelidan farqli ravishda MDH modelida davlat boshqaruvi yagona tashkiliy tuzilma tomonidan emas, balki tarqoq holda bir nechta organ tomonidan amalga oshirilishi asoslantirilgan. Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlarining MDH modeli Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, O‘zbekiston kabi davlatlarda mavjud ekanligi asoslantirib berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining yagona tashkiliy tuzilma sifatida tashkil etilmagani tufayli sohadagi muammolar samarali yechim topmayotgani asoslantirilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ham ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlari tarqoqligiga chek qo‘yib, bosqichma-bosqich Yevropa modeliga o‘tish lozimligi hamda hozirda mazkur sohada mavjud barcha organlarni yagona vazirlikka birlashtirish va yagona ekologik siyosat yuritish maqsadga muvofiq hisoblanishi asoslab berilgan.

Dissertant tomonidan mamlakatimizda ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish istiqbollari sifatida nazorat qiluvchi organ vakolatlarini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va sohada zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda sohadagi davlat boshqaruvida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish lozimligi asoslantirib berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda O‘zbekistonning geografik xususiyatlaridan kelib chiqib, ekologiya sohasining quyidagi tarmoqlarida davlat-xususiy sheriklikni joriy qilish taklif etilgan:

- 1) muqobil energiyadan foydalanish sohasida;
- 2) suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarish sohasida;
- 3) ekoturizm sohasida;
- 4) kompensatsiya evaziga ekilgan daraxtlarni parvarishlash sohasida;
- 5) oqova suvlarni tozalash sohasida.

Tadqiqotchi tomonidan mazkur sohada davlat-xususiy sheriklikni joriy qilish quyidagi afzalliklarga ega ekanligi asoslantirilgan: mazkur sohaga tadbirkorlar mablag‘larini jalb qilish orqali davlat mablag‘lari sezilarli darajada tejab qolinadi; samarali davlat boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish hisobiga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati va raqobatbardoshligi ortadi; davlat o‘z oldida turgan asosiy

vazifalaridan biri – fuqarolar uchun qulay ekologik muhit yaratilishiga erishadi; mamlakatda yangi potensial soliq to‘lovchilar vujudga keladi; fuqarolarning ekologik madaniyati yuksalishiga erishiladi; chiqindilar uchun ajratiladigan katta hududlarning qisqartirilishiga erishiladi; aholini elektr energiyasi bilan ta‘minlash darajasi oshadi; ekoturizmning rivojlanishi hisobiga mamlakatimizda tashrif buyuruvchi turistlar oqimini yanada ko‘paytirishga erishiladi.

Tadqiqot davomida ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlari faoliyatining holati to‘g‘risidagi so‘rovnoma o‘tkazilganda unda ishtirok etgan respondentlarning 90 foizi mamlakatimizdagi ekologik holat yomon ekanligini va mazkur sohani davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish lozimligini ta‘kidlaganlar. Shu sababli ushbu fikrlar asosida sohadagi davlat boshqaruv organlari tizimini optimallashtirish, ularning vazifa va funksiyalarining takrorlanishiga barham berish masalasi tahlil qilingan.

## XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir takliflar va huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ilgari surildi:

### **I. Ilmiy-nazariy xulosalar:**

1. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tushunchasiga quyidagi mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi:

“Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi – vakolatli davlat organlarining fuqarolar uchun qulay ekologik muhitni yaratish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan, ekologik qonunchilik bilan tartibga solingan tizimli ravishda amalga oshiriladigan, normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta‘minlashga oid ijrochilik va farmoyish berish faoliyatidir”.

2. Ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tushunchasiga quyidagi mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi:

“Ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, sohada majburiy talablarni belgilash, ruxsat berish, davlat ekologik nazoratini amalga oshirish, funksional organlar faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vakolatlarga ega bo‘lgan davlat organlari tizimidir”.

3. Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlarining umumiy, maxsus va funksional organlarga ajratishda asosiy mezon ularning kompetensiyasi ekanligi asoslab berildi.

4. Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish vakolati berilgan organning boshqa organlar ta‘siridan xoli, moliyaviy va tashkiliy jihatdan to‘liq mustaqil bo‘lishi lozimligi hamda mazkur organ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tashkil etilishi lozimligi ilmiy jihatdan asoslantirildi.

5. Dissertant tomonidan mamlakatimizda ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlarining rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda 3 bosqichga bo‘lish mumkinligi izohlab berildi. Birinchi bosqich 1925-yilda O‘zbekiston

